

# SUSTAINABLE CITIES AND COMMUNITIES

## NAMANGAN STATE UNIVERSITY

### Namangan davlat universitetida San'at va me'rosni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma'lumot

Namangan davlat universiteti axborot resurs markazi fondida 15896 nomda 275813 ta kitob mavjud bo'lib, viloyat xalq ta'limi boshqarmasi tasarrufidagi umuta'lim maktab o'quvchilari va o'qituvchilari, viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi tizimi tasarrufidagi tibbiy xodimlari hamda "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF 92-sonli farmoni asosida hamkorlik qilinayotgan hududdagi 10 ta mahalla fuqarolar yig'inlari aholisi uchun axborot resurs markazi xizmatlaridan bepul foydalanishni tashkil etgan.



Namangan davlat universiteti Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi bilan shartnoma asosida 6900 nafar talabalar va professor o'qituvchilar uchun universitet hisobidan 13 800 000 so'm mablag' hisobiga Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyiga sayohatlar uyushtirishni ta'minladi. Universitet san'atshunoslik fakulteti tomonidan 2022 yilda tashkil etilgan 61-xalqaro gullar festivalida rasmlar ko'rgazmasida mahalliy aholi va xorijiy mehmonlar bevosita ishtirok etdilar, shuningdek Ilg'or MFY fuqarolari aholisi uchun 2022-yil mobaynida to'rt marotaba rasmlar ko'rgazmasini tashkil etildi.



Namangan davlat universiteti talabalari “Moziyga sayohat” dasturi doirasida Qatagon qurbonlari merosini yanada chuqur organish va ularning xotirasini abadiylashtirish maqsadida 2022 yilda Shahidlar xotirasi maydoni Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyiga tashrif uyushtirildi.



Namangan davlat universiteti tasarrufidagi universitet talabalaridan iborat “Yoshlik”, “Umid” xalq cholg‘ulari kamer orkestri tomonidan universitet talabalari, professor o‘qituvchilari hamda “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF 92-sonli farmoni asosida Namangan shahridan birlashtirilgan Ilgo‘r, Boburshoh, Qadamjo, Ozod, Chorsu, Diyor, Obi-hayot, Sharq tongi, Nurafshon, Baynalminal mahalla fuqarolari yig‘inlarida, viloyat musiqali drama teatrida, universitet faollar



zalida, talabalar turar joylarida konsert dasturlarini namoish etgan.




Universitet “Nihol” talabalar teatr studiyasi tomonidan sahnalashtirilgan N.Rashidovanning “Usmon Nosir” musiqali drama asari yuqorida ko’rsatib o’tilgan



“Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF 92-sonli farmoni asosida Namangan shahridan biriktirilgan Ilgo’r, Boburshoh, Qadamjo, Ozod, Chorsu, Diyor, Obi-hayot, Sharq tongi, Nurafshon, Baynalminal mahalla fuqarolari yig’inlarida, Viloyatning qo’shni davlatlar bilan chegara hududlari Yangiqo’rg’on tumanidagi Oq tom, Mamay, Madaniyat MFY aholisi uchun namoyish etilgan.

Namangan davlat universiteti “Tasviriy va amaliy san’at” kafedrası dotsenti V.Buvayev 2022 yilda Farg’ona viloyatida tashkil etilgan “Xalqaro Kulolchilik” forumida ishtirok etib “Qadimiy an’analarni qayta tiklagan kulol” nominatsiyasi bo’yicha mutloq g’olib deb topilib 1500 aqsh dollari miqdoridagi pul mukofoti bilan taqdirlandi.



Universitet Musıqa ta’limi va madaniyat fakulteti o’qıtuvch-talabalaridan iborat ijodiy jamoasi tomonida 2022 yil mobaynida besh marotaba universitetga biriktirilgan Ilgo’r, Boburshoh, Qadamjo, Ozod, Chorsu, Diyor, Obi-hayot, Sharq tongi, Nurafshon, Baynalminal mahalla fuqarolar yig’inlarida xalq marosimi va bayram jarayonlarini ifodolovchi dasturlarini namosih etidi.



Namangan davlat universiteti o’quv binolari oralig’idagi masofa 3 km tashkil etganligi sababli mazkur binolar oralig’ida qatnovni bepul tashkil etish maqsadida 2022 yilda universitet budjetdan tashqari mablag’lari hisobidan 80 ta velosiped harit qilinib, qatnov yo’lga qo’yilgan.



Namangan davlat universiteti 2022-yilda haftasig besh kunlik ish rejmi joriy etilgan bo'lib, xozirga qadar talabalar 5 kun dars va 1 kun msutqail ta'lim shaklida o'quv jarayonlarini tashkil etib kelinmoqda. Mazkur rejim asosida universitet xodimlari ham besh kunlik ish rejmidagi faoliyat yuritadilar.

 <p><b>O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI</b>  <b>OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI</b>  <b>NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI REKTORINING</b>  <b>BUYRUG'I</b></p> <p>2022 - yil 5 - sentyabr 161-162 - son Namangan sh.</p> <p>Universitet Kengashining 2022 yil 30 avgustdagi 1-sonli majlisi bayonida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida</p> <p>Namangan davlat universiteti Kengashining 2022 yil 30 avgustdagi 1-sonli majlisi bayonida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida</p> <p><b>BUYURAMAN:</b></p> <p>1. Namangan davlat universiteti Kengashining 2022 yil 30 avgustdagi 1-sonli majlisi bayoni ijro uchun qabul qilinadi.</p> <p>2. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 31 yilligiga munosib tayyorgarlik ko'rish va shundan kelib chiqadigan vazifalar hamda universitetda mustaqillik darslarini tashkil etish bo'yicha:</p> <p>2.1. Yoshlar bilan ishlash va ma'naviy-ma'rifiy masalalar bo'yicha prorektor N.Deskanov, o'quv ishlari bo'yicha prorektor D.Xolmatovga:</p> <p>Oliy va o'rta maxsus ta'limi vazirining 2022 yil 17 avgustdagi "Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida yangi - 2022/2023 o'quv yilida yoshlar tarbiyasi, ularni qo'llab-quvvatlash va ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini yanada takomillashirish to'g'risida"gi 281-sonli buyrug'ida belgilangan vazifalar ijrosini sifati ta'minlash yuklatiladi.</p> <p>2.2. O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 31 yilligi munosabati bilan</p>	<p>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 3 dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarini bosqichma-bosqich o'zini-ozini moliyalashtirish tizimiga o'tkazish to'g'risida" gi 967-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi PQ-3151-son Qarori 5-band, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yil 17 avgustdagi 02/15-17-08-01-sonli sari, Kasaba uyushmasi qo'mitasining 2022 yil 29 avgustdagi 8-sonli yig'ilish bayoni, O'zbekiston Respublikasi davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini muvofiqlashtirish bo'yicha Davlat komissiyasi majlisining 2022 yil 3 avgustdagi 2-sonli bayoni, Namangan davlat universiteti Kengashining 2022 yil 30 avgustdagi 1-sonli majlisi bayoni.</p> <p style="text-align: center;">Rektor </p>	<p>29 avgustdagi 8-sonli yig'ilish bayoni qarori ilovasida ko'rsatib o'tilgan miqdorlarda ustama haqlari belgilanishiga rozilik berilsin.</p> <p><b>8.2. Bosh hisobchi II. Qosimovga:</b>          Kasaba uyushmasi qo'mitasining mazkur qarori bilan ustama belgilanayotgan 3 nafar xodimlarning amaldagi ustama haqlariga tegishli o'zgartirish kiritish hamda yangi ustama haqi tayinlangan 5 nafar xodimlarga belgilangan miqdorda ustama haqlarini to'lab berilishini ta'minlash vazifalari yuklatilsin.</p> <p><b>8.3. Tegishli soha bo'yicha prorektorlari, boshqarma va bo'lim boshliqlari, fakultet dekanlari, kafedra mudirlariga:</b>          2022 yil sentyabr oyidan ustama haqi belgilanayotgan 8 nafar xodimlarning kelgusi faoliyatlarini muntazam tahlil qilib borish, ular faoliyatida o'zgarishlar aniqlangan taqdirda o'z vaqtida asoslangan bildirishnoma kiritish vazifasi yuklatilsin.</p> <p><b>9. Namangan davlat universiteti talabalar turar joyida 2022/2023 o'quv yili uchun oylik to'lov miqdorini belgilash bo'yicha:</b></p> <p>9.1. Universitet talabalar turar joyida oylik to'lov miqdori 2022/2023 o'quv yili uchun 50 (ellik) ming so'm etib belgilansin.</p> <p>9.2. Talabalar turar joyida yashash uchun talabalar tomonidan 2022/2023 o'quv yili uchun oylik yashash to'lovini har oyda amalga oshirib borish lozimligi belgilab qo'yilsin.</p> <p>9.3. Talabalar turar joyiga joylashtirishda uzoq hududlarda yashovchi, shu bilan birga "Mehtirbonlik uyi" tarbiyalanuvchilari, chin yetim, 1-2 guruh nogironlari, "Iltimoz" klubi va "Mehtirbonlik uyi" tarbiyalanuvchilari, chin yetim, 1-2 guruh nogironlari va chin yetim bo'lgan talabalarga Talabalar turar joylarida yashash istisno tariqasida bepul etib belgilansin.</p> <p>10. Mazkur Kengash qarorlarining ijrosi nazorati soha prorektorlari N.Deskanov, D.Xolmatov, X.Mavlyanov, D.Deskanov, Kengashi ilmiy kotibi M.Asqarova zimmasiga yuklatilsin.</p> <p>11. Mazkur buyruq ijrosining nazoratini o'z zimmasida qoldiram.</p> <p>Asos: Oliy va o'rta maxsus ta'limi vazirining 2022 yil 17 avgustdagi "Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida yangi - 2022/2023 o'quv yilida yoshlar tarbiyasi, ularni qo'llab-quvvatlash va ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini yanada takomillashirish to'g'risida"gi 281-sonli buyrug'ida belgilangan vazifalar ijrosini sifati ta'minlash yuklatiladi.</p>
--	--	---

Namangan davlat uiniversiteti 2022-yilda talabalar turar joylari uchun oylik badal miqdorini 50 000(ellik ming) so'm etib belgilash orqali talabalarni turar joylari bilan ta'minlab kelmoqda.

Namangan davlat universiteti o'ziga tegishli o'quv binolari, talabalar turar joylari va ulardagi axborot resurs markazlari, umumiy ovqatlanish shahobchalari, madaniyat zallariga aholi kirishini nazorat asosida tashkil etadi.

**REDUCED INEQUALITIES**  
*NAMANGAN STATE UNIVERSITY*



Namangan davlat universitetida 2022 yilda 400 o'rinli zamonaviy talabalar turar joyi binosi qurish jarayoni boshlangan.

